

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA” KAFEDRASI

HAYKALTAROSHLIK

(Arxitektura va KXALTI yo'nalishi talabalari uchun uslubiy qo'llanma).



Urganch – 2019

Ushbu “Haykaltaroshlik” nomli uslubiy qoʻllanma arxitektura va KXALTI yoʻnalishi talabalari uchun moʻljallangan boʻlib haykaltaroshlik sanʼatining qisqacha tarixi, unda ishlatiladigan materiallar va haykal yasash uslub-bosqichlari xaqida maʼlumotlar berilgan.

Kitobdan kasb–hunar kollejlari talabalari, toʻgarak raxbarlari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

UrDU “Qurilish va arxitektura” kafedrası
professori, Oʻzbekiston Respublikasi sanʼat
arbobi, Badiiy Akademiya haqiqiy aʼzosi -
Allaberganov A.

UrDU “Qurilish va arxitektura” kafedrası
oʻqituvchisi **Seyitniyazova A.A.**

Taqrizchilar:

Ixtisoslashtirilgan sanʼat maktab-internat
direktori, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan
yoshlar murabbiysi **Bekchanov Q.Y.**

UrDU “Tasviriy sanʼat va muhandislik grafikasi”
kafedrası katta oʻqituvchisi **Roʻzmetov Q.Sh.**

Uslubiy koʻrsatma “Qurilish va arxitektura” kafedrasining 2019 yil «__»
_____ № __ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Universitet uslubiy kengashining qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan

KIRISH

San'at inson hayoti bilan juda qadim zamonlardan bog'lanib kelgan. Haykaltaroshlikda asar haykalbob materiallarni shaklga solib: tosh, yog'och, suyak, metall kabi qattiq materiallarni yo'nib, o'yib, zarb berib, ishlab; plastik materiallarni chaplab yopishtirib, suvab; metal, gips, loy kabilarni quyib qotirib tayyorlanadi. Haykaltaroshlik uch bosqichdan iborat bo'lib, hajmdan tashkil topadi (balandlik, eni, uzunlik). Haykaltaroshlik asarlari har tamonlama ko'rishga mo'ljallangan. Bu soha uchun tosh, metall, bronza, yog'och, loy kabi materiallar zarur. Tasviriy san'atning bu turi qadim zamonlardan buyon mavjudkim, bu tarixdan ma'lum. Qadimgi antik dunyo san'ati haykaltaroshlik asarlarisiz tasavvur etish qiyin. Arxeologik qazilmalar natijasi fikrimizni natijasidir. Yoxud uyg'onish davri haykaltaroshligiga bir nazar salsak, ajoyib va mukammal ko'rinishga ega bo'lgan haykaltaroshlik asarlarini ko'rib hayratlanmaslikning iloji yo'q.

Misol: Donatello, Mikelanjeloning «Davit» nomli haykallari.

Umuman haykaltaroshlikda ham muallif badiiy obrazlar orqali qattiq yoki yumshoq materiallardan jonli siymoni yaratadi. Bunday yaratilgan obrazlar o'zining maqsadini to'la mujassam etish uchun, me'morchilik inshootlarida, maydonlarida, muzey, tarixiy joylardan va hatto qabristonlarda ham o'rnatiladi.



1-rasm

Haykaltaroshlik asarlari agar me'morchilik bilan bog'liq bo'lsa unda uning mayda hajmga ega bo'lgan barelef va gorelef turlari qabul qilinadi. Baralefda hajmning $\frac{1}{3}$ qismi, garalefda $\frac{2}{3}$ qismi bo'rtib turadi. Haykaltaroshlik bunday usullari binoning tashqi fasad va frontonlarida, deraza, eshik atroflarida, binoning ichki qismlaridagi karniz potolok plafonlari atrofida o'z aksini topadi. Haykaltaroshlikda asosan inson obrazi yaratiladi, jonivor, qisman o'simliklarning shakli ishlanadi. Haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari ichida eng qadimiy san'atdir. Odamlar hali yozish va sur'at solishni bilmagan paytlaridayoq yopishqoq materiallardan odam va hayvon gavdasiga o'xshash shakllarni yasashga harakat qilganlar.

O'tmishdagi san'atkorlar va bizning zamondoshlarimiz tomonidan yaratilgan, san'at tarixiga kiritilgan ko'pgina ajoyib asarlarni sanab o'tishimiz mumkin. Hayotimiz tasviriy san'at uchun ayniqsa katta imkoniyatlar yaratib beradi, chunki kundan - kun qahramonlar yetishib turmoqda. Olimning qahramonona qilgan ijobiy ishlarini qaror toptirish, qahramonlarning nomlarini abadiylashtirish, haykaltaroshlikning muhim vazifasidir.

San'at asarlarida odamlar, zamon va davrning eng muhim hislatlari ochiladi. Har bir san'atkor bu to'g'rida o'zi tushungancha ish tutadi. Shu sababdan har bir asarda biz faqat tasvirlangan odamnigina ko'rib qolmay, balki san'atkorning o'zini ham, uning hayotni tushunishini ham, tasvirlayotgan narsaga munosabatini ham ko'ramiz.

Bu san'atda borliq yorug' soyaga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Turli xildagi stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, park va xiyovonlarga o'rnatiladigan yirik hajmli haykallar muhim g'oyalar propagandasiga xizmat qiladi.

Boshlovchi haykaltaroshlar uchun eng yaxshi material loy hisoblanadi. Bu yumshoq material shaklga oson kiradi. Suvda tez yumshaydi va havoda quriydi. Loy pishirilmagan bo'lsa uni xohlagan paytda olib ishlatish mumkin. Loy bilan ishlash uchun qimmatbaho asboblari shart emas. Eng asosiy asbob qo'l hisoblanadi. Boshqa asboblari, masalan steklar qo'lda ham yasalishi mumkin. Bu qo'llanma

plastik tasvirlar yaratishga qiziquvchilar uchun va Arxitektura va KXALTI yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Quyidagi vazifalar:

- Talabalarning borliqdagi va ro'y berayotgan voqea - hodisalarga nisbatan estetik munosabatlarini tarkib toptirish va idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Borliqni ko'ra bilish va idrok etish zihnini o'stirish hamda o'z tasavvurlari va tushunchalarini plastilin yoki loy yordamida hajmdor qilib tasvirlay olish malakasini o'stirish;
- Talabalarning badiiy didlari va estetik ehtiyojlari, obrazli fikr yuritishlari, ijodiy tasavvurlari hamda fantaziyalarini o'stirish
- Talabalarning haykaltaroshlik borasidagi nazariy va amaliy tushunchalarini rivojlantirish;
- Talabalarning haykaltaroshlik san'atining eng yirik va mashhur asarlari bilan tanishtirish orqali ularning bu san'at turiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish.

Talabalarda ijodiy natijalarni rivojlantirishda topshiriq mazmunini nazariy jihatdan tushuntirish va amaliy ravishda bajarish usullari muhim ahamiyatga egadir.

LOY

Hamma loyni idish - tovoqlar yoki hayvonlar figuralarini qo'lda yasash mumkin bo'lgan plastik massa sifatida biladi. Dialogik nuqtai nazardan qaraganda loy tarkibida suv bor bo'lgan «kremniy aluminiy» hisoblanadi. Aniq material sifatida u vulqon toshlaridan tashkil topgan bo'lib, yillar o'tishi davomida atmosfera ta'sirida va yomg'ir yuvib ketishi natijasida daryolarga va chekka joylarga borib tushgan. Germaniyadagi Odenvalt, Vestervalt va Gessenda xuddi shunday loy konlari mavjud. Loy qurigandan keyin qattiqlashadi, minimum 600° C temperaturada pishirganda esa suvda erimaydigan, suv o'tkazmaydigan pishiq materialga aylanadi.

Loy turlari

Konlardan qazib olingan turli soʻrtdagi loylar tozalanadi va ishga tayyorlanadi. Kulolchilik ustaxonalarida ularning qoʻllanilishi va ishlatilishiga qarab aralashtiriladi va rang beriladi.

Loyning quyidagi turlari mavjud:

1. Shirali loy.

Bu loy yogʻli loy ham deb ataladi. Uning tarkibi stabel boʻlganligi sababli shakl yaratishda katta ogʻirlikni ham koʻtara oladi. Bu loy xohlagan shaklni qabul qilib va shakllay oladi. U koʻpgina plastik obrazlar, figura, mayda ishlarga juda qoʻl keladi, shaklni yaxshi qabul qiladi.

2. Shirasiz loy.

Shirasiz loy tarkibida plastik boʻlmagan materiallar, masalan qum koʻp boʻladi. Shakl yaratishda yogʻli loyga qaraganda ogʻirlikni koʻtara olmaydi. Lekin uning qayta ishlash natijasida plastikligini kuchaytirish mumkin. Shirasiz loy qoʻpol oddiy shakllarni, qurilish keramikasi yoki yalpoq elementlarni, masalan, relefni ishlashga juda mos keladi.

3. Shamot loyi.

Shamot deb kuydirilib maydalangan loyga aytiladi. U loyga quritish va pishirish paytida oʻziga xos sifatlarni berishi uchun qoʻshiladi. Masalan, loyga shamot koʻshilgandan soʻng pishirish paytida shakl qiyshayishi va yorilishi kamayadi. U karkas rolini oʻtaydi. Xavo oʻtkazish xususiyatiga ega boʻlganligi uchun pishirish paytida ichidagi gazlar engil chiqib ketadi.

4. Qizil kuydirilgan loy (jusha).

Qizil loy tarkibida temir oksidi boʻlganligi sababli pishirilgandan keyin qizil rangga kiradi.

5. Oq kuydirilgan loy.

Oq kuydirilgan loy aralash loy boʻlib, tarkibida koʻp miqdorda kaolina mavjud.

6. Kul rang va qora kuydirilgan loy.

Uning tarkibini ko'p qismi shirasiz marganets loyidan tashkil topgan. Loyning bu turi past temperaturada pishiriladi, yuqori temperaturada erib ketadi.

O'zbekistonda loy konlari

Farg'ona shahri Rishtondan 2 km chekkasida; Samarqand shahridan 8 km chekkasida; Cho'ponotada; Toshkent shahridan 6 - 8 km chekkasida Qora saroyda; Xiva shahridan 2 km chekkasida Gandimyonda loy konlari mavjud.

Loyning saqlanishi

Agar loy maxsus paketlarda turgan bo'lsa bir yil saqlanadi. Yirtilgan paketlar xo'l sochiq bilan yopiladi. Plastik paketlardan ham foydalanish mumkin. Shuningdek qopqoqli, mustahkam yopiladigan chelaklardan ham foydalanish mumkin. Agar loy quruq holatda bo'lsa, uni kattaroq idishda, masalan, vannada tayyorlash mumkin.

Loy tayyorlash texnologiyasi haqida umumiy ma'lumotlar

Maxsus paketlardagi loyni qayta ishlash shart emas. Agar loy quruq massa holida yoki qotgan bo'lsa, uni qaytadan ishlash kerak bo'ladi. Buning uchun quruq loyni suvga bo'ktirib yumshatiladi. Shundan keyin ortiqcha suvlar to'kib tashlanadi va loy bir oz quritiladi. Keyin uni aralashtirib g'ijimlab elastik va bir xil strukturaga kelguncha ishlov beriladi.


ISH JOYLARI

Ish ustaxonasi.

Ish ustaxonasi sifatida ishlatilmay turgan kirxona, ombor yoki bo'sh garajlardan foydalanish mumkin. Agar suv o'tkazilgan rakovinasi bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ustaxona isitilishi lozim. Yorug'lik yetarli bo'lishi kerak. Agar kunduzgi yorug'lik yetarli bo'lmasa, sun'iy yorug'lik yaxshi berilishi kerak.

Kulolchilik dastgohi

Ishni xohlagan stol ustida ishlash mumkin, lekin kamroq harakat qilib, ko'proq ishlash uchun aylanadigan taburetkadan foydalaniladi. Tayyor aylanadigan dastgoh ham bo'lishi mumkin.



2-rasm


Haykaltaroshlik bilan jiddiy shug'ullanmoqchi bo'lsangiz aylanadigan dastgoh bo'lishi shart. Bu dastgohning balandligini xohlagancha ko'tarish yoki tushirish mumkin. Bu ayniqsa releflar ustida ishlaganda qo'l keladi. Bu dastgohni har kim o'zi yasab olishi mumkin. (2-rasm).

Buning uchun quyidagi materiallar kerak bo'ladi:

1. Uzunligi 123 sm, qalinligi 4 x 5 sm o'lchamdagi 3 ta xoda;
2. Tomonlari 50 sm bo'lgan 1 ta uchburchakli taxta;
3. 30 sm diametrdagi yuzasi tekislangan 1 ta dumaloq taxta taglik;
4. 30 x 30 sm li 1 ta yuzasi silliq taxta taglik;
5. Qalinligi 10 sm, diametri 2 sm 1 ta dumaloq sterjen;
6. Uzunligi 10 sm, qalinligi 4 x 5 sm bo'lgan 3 ta yog'och xoda;
7. Yog'och uchun 9 ta shurup.

ASBOB - USKUNALAR

Haykalartaroshlik ishlarini bajarishda eng asosiy asbob odam qo'li hisoblanadi. Odam qo'li bilan loyni qoradi, g'ijimlaydi, tekislaydi va to'g'iraydi. Shakllar ikkita qo'lda barmoqlar yordamida yasaladi. Bundan tashqari maxsus asboblarning ham kerak bo'ladi. (3-rasm).



3-rasm.

Steklar - stek modellashtirilishidagi eng sodda asboblarning biri. Ular yog'ochdan yasaliib, moy shimdirilgan bo'ladi va turli shaklda bo'lishi mumkin. Mayda steklar tayoqchalar deb yuritiladi. Ish boshlamasdan oldin ikki, uchta stek bo'lsa yetarli.

Shpatellar

Shpatellar - qayishqoq metallardan yasalanadi. Yog'och ruchkali oddiy shpatellarni oddiy ishlar bajarganda ishlatish mumkin. Nozik ishlarni bajarganda ikki tomoni turli shakldagi shpateldan foydalaniladi.

Bir tomoni o'tkirlashtirilganch shpatellar lanset deyiladi.

Tish davolash skalpellaridan ham foydalanish mumkin.

Italyan asboblari bilan dolota gips bilan ishlashda juda qo'l keladi. Ular qo'lda turli shaklda yasalanadi.

Modellashtirish uchun petlyalar

Modellashtirish petlyalari loyni bo`lib olish uchun ishlatiladi. Yog`och asos unga mahkamlangan po`lat va latun petlyalardan iborat. Ba`zi petlyalarning bir tomoni halqa, bir tomoni shlatel shaklida ishlangan.

Haykal yasashda ishlatiladigan boshqa asboblari.

Yog`och to`qmoq – loyni mustahkamlash va tekislash uchun ishlatiladi. Mayda sim – loyni kesish va bo`laklash uchun ishlatiladi. U gitarani toridan yasaladi.

Doron – o`rmon yong`og`ining shoxidan yasaladi.

Hamir uchun qirgichlar – yirik yuzalar va aylanalarni tekislashda ishlatiladi.

Mo`yqalam va gubka – tashqi yuzalarni tekislash uchun ishlatiladi.

Sirkul – yog`ochdan yoki metallardan yasalgan bo`lib, uzunliklari nisbati va o`lchamini aniqlaydi.

Bundan tashqari suv sepgich, lattalar, sochiq kerak bo`ladi.

IKKI – UCH BUYUMDAN TASHKIL ETILGAN NATYURMORTNING RELEFINI ISHLASH

O`quvchilar natyurmortlarni bajarish bo`yicha zarur bo`lgan asosiy nazariy masalalarini qalamtasvir usullarida o`rganib, amaliy ko`rsatmalar bilan tanishib bo`lganlar, shuning uchun natyurmort kompozitsiyasi, tematik mazmuni, kompozitsion markaz simmetriya, nisbatlar kabi masalalarda to`xtalib o`tishimiz zarur emas. Faqatgina haykaltaroshlikka oid masalalarini ko`rib chiqamiz. Relif bajarish haykaltaroshlikka o`qitish umumiy tizimdagi murakkab bosqichdir. Relif ustida ishlash talabadan nafaqat qalamtasvir sohasida, balki perspektiva bo`yicha

kerakli tayyorgarlikni talab etadi. Shuningdek, turli hajmga ega shakllarni shartli bo`shliqda tahlil qilish va taqqoslash mahoratini ham talab qiladi.

Dumaloq. Haykaltaroshlikdan farqli ravishda releflar tekislikda tasvirlanadi va devor bilan yaxlitlikni tashkil etib, uni bezatish uchun xizmat qiladi.

Agar qalamtasvirda buyum shaklning hajmi chiziqlar, yorug` soya va tuslar nisbatlari hamda to`g`ri chiziqli perspektiva yordamida yaratilsa, relefli tasvirda esa haykaltaroshlik vositalari va hajmli perspektiva qonunlaridan foydalaniladi. Relif - umumiy tushuncha bo`lib, hajmiga qarab, barelef (past relif) va goreleflarga (baland relif) bo`linadi. Relifli tasvirning chuqurligini tanlash relifning vazifasi va uning ko`rsatilish joyiga qarab olinadi. Yaqin masofadan kuzatish uchun releflar ancha yuzaroq bajariladi. Relifda hamma predmetlar hajmi asosiy tekislikka parallel ravishda kichrayadi. Bu kichrayishlar o`z - o`zidan erkin bo`lavermaydi, balki perspektiv kichrayishlar ma`lum qonuniyatlarga bo`y sunadi. Reliflar tuzilishining qonuniyatini predmetning eng keng joyidan kesishish tekisligini o`tkazib predmet proyeksiyasi ko`rinishini tasvirlashda yaqqol ko`rish mumkin. Dastlab, biz oddiy bir predmetli natyurmortning relifda qurilish prinsipini ko`rib chiqamiz.


4,5,6- rasmlarda oddiy bir ko`zachaning old va yuqori tomonidan ko`rish chizmalari tasvirlangan. Bu yerda s, ye chizig`i uning eng keng tomonini bildiradi, a, a - kesishish tekisligi bo`lib, tasvirga parallel ravishda ko`za hajmini teng ikkiga bo`ladi: BGDE esa - buyum tekisligi.

Natyurmortni relifda tasvirlanganda uning hajmi (chuqurligi) perspektivada kichrayib boradi va ko`zaning aylana hajmi ellips shakliga yaqinlashib boradi (5- rasm).

B, D chuqurligi perspektivadagi tasvir chuqurligini belgilaydi. Relif qurishni yanada chuqurroq tushunib olish uchun ko`za relifi chuqurligini 8 sm. deb olamiz.


Bunda "Oltin kesim" qonunga binoan 8 sm.li ko`za hajmi 5:3 nisbatlarda ifoda etiladi. Bu esa o`rta tekislik a a relif chuqurligini ikki teng bo`lmagan qismga 5:3 nisbatda bo`ladi, 5 qismi — ko`rinib turgan hajmi bo`lsa, 3 qismi

— koʻrinmaydi. Lekin u haqiqiy mavjud hajm boʻlib, odam koʻzani chetki hajmi chiziqlarini tekislikning s s nuqtalarida koʻramiz.




Shu tariqa koʻzachani relefda tasvirlanganda uning (soyasi) tashqi konturini koʻrsatuvchi chiziqlarni tekislikdan 5:3 nisbatdagi proporsiyada chizish kerak. Koʻzacha konturini koʻrinmaydigan qismini tekislikka ichki yoʻnalishda s s nuqtalari boʻyicha kesiladi. 6- rasmda koʻzachaning koʻrinmaydigan qismi katakli qilib shtrihlab koʻrsatilgan.

Endi murakkabroq boʻlgan natyurmort reliefi tasvirini koʻrib chiqamiz. Kompozitsiyada koʻzacha yoniga metall idish va olmani qoʻyamiz. Bunday natyurmortning tashqi koʻrinishi va haqiqiy joylashishi old va yuqori tomonlarining koʻrinishlari 7-rasmda koʻrsatilgan. Yuqoridan qaraganda 1, 2, 3 raqamlari bilan predmetlarning oʻrta tekisliklari belgilangan. Endi natyurmortning haqiqiy hajmlarini relefda bajarsak, u tekis ellipsoid shakli koʻrinishida boʻladi.



7 - rasm


7 - rasm. Natyurmortning haqqoniy ko'rinishi va rejasi. 1,2,3 - buyumlar ning o'rta chizig'i.



8 - rasm

8 - rasm. Natyurmortning haqqoniy ko'rinishi va rejasi. 1,2,3 - buyumlarning orta chizigi.

9 - rasm. Natyurmortning hajmi punktir chiziqlar bilan belgilangan. 1,2,3,4,5 raqamlar bilan - ha'm nuqtalari ko'rsatilgan.



9 - rasm

1, 2, 3 raqamlari bilan relief tasvirlangan shaklning o'rta tekisliklari belgilangan. Tasvirdan ko'rinib turibdiki, har bir shaklning o'rta tekisligi relief chuqurligini 5:3 nisbatda bo'ladi. Natyutmortdagi turli shakllar relefini tasvirlab ko'rsatganda ularning naturadagi o'zaro haqiqiy nisbatlaridan kelib chiqish kerak. Bizning misolimizda olmaning o'rta chizig'i ko'zachaning eng keng joyidan aytaylik uch marta kichikdir. Shuning uchun shakllarni tasvirlaganda olma relefi chuqurligini ko'zacha relefi chuqurligidan uch marta kichik olish lozim.

Relfli tasvirlar ishlaganda matematik hisoblar bo'yicha emas, ishni

badiiy sezgi va motivga tayanib ko'z bilan chamalab bajariladi. Natijada natyurmort fazoviy va hajmi ifoda etiladi Kompozitsiyada shakllar tekislikdan turli holatlarda joylashishi (yaqin yoki uzoqroqda, ichkarida bo'lishi qisman bir birini to'sib turishi mumkin.

O'quv natyurmortlarni bajarganda drapirovkalardan keng foydalanish kerak. Bunda talabalar matolarning turli burmalari nafisligini o'rganib va ularning tasvirlashni o'rganadilar. Bundan tashqari fonda matolar qo'yish butun kompozitsiyani birlashtiradi, uni jonlantiradi, yanada mazmunli va ifodali qiladi.

Releflarni ko'rish qonuniyatlarini tushunish uchun old tekisligiga e'tibor berish kerak. Relefning butun tasviri go'yoki ko'rinmas parallelepipedda joylashgandek (8 – rasm).

U bir tomondan aniq, orqa tekislik, fondan tashkil topsa, boshqa tomondan undagi tasvirlarga parallel ravishda oldingi tekislikdan iborat bo'lib, shakllarda bo'rtib turgan eng yuqori nuqtalari mavjud bo'ladi.

Bunday oldinga chiqib, turgan eng baland nuqtalar uchburchak shaklda bo'lib joylashadi va kamida uchta nuqtadan iborat bo'lishi kerak. 9-rasmda bu nuqtalar 1, 2, 3, 4, 5 raqamlari bilan belgilangan. Ular qanchalik ko'p bo'lsa relief shunchalik to'la, yaxlit va haqqoniy chiqadi.

Relefning hajmlari ustida ishlarkansiz, buyumlarning oldingi tekisligidan orqa tekislikkacha kichrayib borishini ko'rsatishingiz kerak. To'g'ri kichraytirish amalga oshirila olinsa, reliefning silliq nafisligi va fazoviy yaxlitligi saqlab qolinadi va dumaloq jism hajmdorligi hissiyoti yaratiladi.

Natyurmort reliefi ustida ishlar ekan ko'pchilik talabalar kompozitsiya va mazmun masalalariga ko'p e'tiborni qaratmaydilar. Agar rangtasvirda bir xil shakllar ranglar jilosi bilan ijobiy hal etilsa, haykaltaroshlikda esa natyurmortga ko'pincha bir xil shakldagi predmetlarni oladilar. Masalan, ikkita dumaloq, monoxrom bir xil shakllar zerikarli va mazmunsiz bo'ladi. Shuning uchun natyurmortni turli mavzu, mazmunda tuzish tavsiya

etiladi.

Kompozitsiyaga turli shaklga ega predmetlari kiritilishi mumkin. Uch – to'rtta predmet, natyurmort, mavzu va kompozitsiyasini qiziqarli qilish uchun etadi.

Bir mavzuni tanlagandan so'ng, oldin xomaki rasmda kompozitsiya eskizini chizib olish kerak. Shundan so'ng o'qituvchi bilan maslahatlashib olib mavzu relefini yaratishga kirishish mumkin. Natyurmortni eng yaxshisi 30 x 40 sm o'lchamdagi taglik (planshet) tekisligida yasagan hamda relief chuqurligini 3 - 4 sm qilib olgan ma'qul. Agarda asl nusxaga qarab natyurmort yaratilsa ish ancha foydali va mazmunli bo'ladi. Shakli uzunchoq. bo'lgan predmetlarni tasvir tekisligiga parallel joylashtirish kerak.

Natyurmort buyumlarini relief ko'rish prinsiplariga asoslangan ko'rinishlari usullar bilan ko'rish va ularni umumiy tekislikka keltirish kerak. Natyurmortda to'g'ri burchakli va kub shaklidagi predmetlar ishtirok etganda ularni bir oz ichkariga burib, qo'shimcha tekislik va qirralarini ko'rsatish lozim.

Natyurmort relefining hamma qismlari kichraytirib ko'rsatilishi va belgilangan parallelepiped tekisligida sig'dirilishi kerak. Natyurmortdagi asosiy, markazda turuvchi buyumni yuzada yaxshilab joylashtirish va perspektivada uning asosini aniq ko'rsatish kerak, toki boshqa buyumlar uni berkitib qo'ymasini. Bu haykaltaroshlikning releflarga arxitektonika tomonidan qo'yiladigan talabdir.


Reliefni bajarilishida uni turli yoritilishida tekshirib ko'rib tasvirlayotgan predmetlarning aniq shakli va fazoviy hajmiy ifoda etilishiga erishish kerak.

Ba'zi talabalar natyurmortning hamma qismlariga ko'rkamlik, nafislik kiritish uchun ranglar ishlatishga harakat qiladilar, ammo haykaltaroshlikda ranglardan foydalanishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Haykaltaroshlik asosan monoxrom san'at turi hisoblanadi. Ba'zan

natyurmortning dekorativligini ko'rsatish uchun asosiy fon tekisligini rangli qiladilar, bu esa mazmunga hamda relefni ko'rsatish uchun mos kelishi kerak.

Ishning yakuniy bosqichida buyumlar fakturalari tuzilishini ishlab chiqish tasvirlanayotgan predmetning materialligini ko'rsatish va ularni badiiy jihatdan jonlantirish muhim rol o'ynaydi. Natyurmortni relefda bajarishda quyidagi ketma - ketlik tartibiga rioya qilish kerak:

1. Natyurmortning qog'ozga chizilgan eskizini konsultatsiya uchun o'qituvchiga ko'rsatish.
 2. Natyurmortning ma'qullangan kompozitsiya variantini o'qituvchi ko'rsatmalari asosida bajarib, haqiqiy kattalikda qog'ozga ishlash.
 3. Natyurmortning tasviriy yakuniy tasdiqlangandan keyin plastilinda relefini bajarish.
 4. Natyurmortni plastilindan yasash jarayonida maslahat uchun o'qituvchiga ko'rsatiladi.
 5. Tayyor ishni baholash uchun ko'rikka taqdim etiladi.
- Mavzuni mustahkamlash uchun talabalar uyda ko'plab mustaqil ravishda amaliy gaplar bajarishlari lozim. Shunday ishlardan namuna sifatida 10-rasmda ko'rsatilgan.



10 - rasm. Natyurmort relefi

GIPS NAQSH ROZETKASINI O`ZIGA QARAB RELEFINI ISHLASH.

(material : loy, plastilin).


Mashg`ulotning birinchi qismida talabalar odatdagidek gips modellar bilan tanishadilar. Shundan so`ng naqsh namunasi quyilmasi tanlab olinadi va uning haqiqiy kattaligi o`lchamida ishlashga o`tiladi. Gips rozetka shunday balandlikda turishi kerakki, ufq chizig`i uning o`rtasidan o`tsin. Sizning bajarayotgan vazifangiz ham ana shu balandlikda bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Vazifani talaba tik turgan holda amalga oshiradi. Dastlabki bosqichda rozetkaning balandligini eniga o`lchash va uning qalinliklarini belgilab olishdan iborat bo`ladi. Shuni alohida ta`kidlash joizki gips naqshni bajariladigan shmin loy bilan bir xil qalinlikda to`ldirilib, shundan so`ng uni silliq, qilib tekislanadi. Bu shuning uchun zarurki, chunki notekis fonda naqsh elementlari qanchalik darajada mohirona tasvirlanmasin uning kompozitsion jozibasi ko`rinmay qoladi.

Balandligi eniga mos ravishda bajarilgan fon yuzasiga o`tkir stek yoki pichoqcha uchi bilan naqsh tasviri aniq tushiriladi. Bunda talaba vertikal, gorizontal va diagonal yordamchi chiziqlardan foydalanishi mumkin. Tasvirni zamin - taxtachaga tushirishda shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, naqsh abrisi (konturi) kompozitsion maqbul joylashishi lozim. Ushbu amal bajarilgandan so`ng vazifaning keyingi bosqichiga o`tiladi


Keyingi bosqichda naqsh abrisi kompozitsion to`g`ri joylashtirilib so`ngra uni yasashga o`tiladi. Birinchi galda naqshning eng yuza qismlari bajarilib shundan so`ng asta - sekin zamindan balandroqdagi bo`laklar ishlanadi. Ta`kidlash joizki, haykaltaroshlikda ham xuddi rangtasvir yoki qalamtasvirdagidek barcha qismlar bir vaqtda bir - biri bilan qiyoslangan (eni, balandligi, qalinligi v.b) holda amalga oshiriladi. Bu esa o`z navbatida relief qismlarining nisbatlarini bir - biriga taqqoslab ish yuritish imkonini beradi. Asosiysi zaminga tushirilgan naqshning chizgisi yo`qolib ketmaydi

Naqshning barcha elementlarining umumiy massasi uch o`lchamda (eni, balandligi, chuqurligi) to`g`ri to`ldirilib bo`lingandan va uning nisbatlari

aniqlangandan so'ng, shakllarga ishlov berishga o'tiladi. Eslatib o'tamizki, ko'pgina talabalar naqsh elementlarini ishlash jarayonining dastlabki bosqichiga yetarli e'tibor bermaydilar. Agar ushbu bosqich relief ishlash vazifasining asosiy sathdan (fondan) farqini tekshirishi kerak bo'lsa, unda haykaltaroshlik uchun ishlatiladigan maxsus sirkul yordamida ishni tekshirib yon tomondan qarab, o'zining bajargan ishi bilan solishtirishi lozim.




11 - rasm



12 - rasmlar. O'zbek milliy halq amaliy san'ati naqshlari asosida tuzilgan geometrik va islamiy naqsh rozetkalari.


QO'L PANJASI

1. Qo'l yasash uchun oldin dumaloq loyni ustidan bosib qo'lning panjasi chiqariladi.



13-rasm


Panjaga barmoqlar yopishtiriladi, bosh barmoq kaftning joylashgan chetidan boshlanib, ko'rsatgich barmoqning birinchi bukilishigacha boradi.




14-rasm

2. Bosh barmoq kaftning joylashgan chetidan boshlanib, ko'rsatgich barmoqning birinchi bukilishuvigacha boradi.

3. Keyin panjaga boldir suyagidan iborat bilakchani yopishtiramiz.




15-rasm



16-rasm

4. Yasalayotgan qo'l ustidan loy yopishtirib qo'lning shakli chiqariladi. Bosh barmoqning bukiladigan qismi chiqariladi.




17-rasm

5. Barmoqlarning bukiladigan qismigacha loy yopishtirib shakli topiladi. Qo'lning bukiladigan qismi qo'l o'rtasiga to'g'ri keladi. Qo'lning uzunligi qo'l eniga qaraganda ikki marta uzun bo'ladi. Odam yuz qismi bilan solishtirib o'lchanganda engakdan soch boshlanadigan joygacha bo'lgan masofaga teng bo'ladi.



18-rasm

6. Kichik yog`och taxtacha bilan urib tekislab mustahkamlab chiqiladi




19-rasm

7. Barmoqlar va tirnoqlar shaklini tashqi tomonidan shpatel asbobini teskari tomonga bosib yurgizib topiladi.



20-rasm

8. Naqshli relefigina asta – sekin asosiy zamindan ajratib tekislab olinadi hamda ushbu zaminga boshqa naqsh relefi ishlanishi mumkin. Bu esa talabaning qimmatli vaqtini tejashga imkon beradi.



21-rasm

GIPS MODELGA QARAB, ODAM BOSHI RELEFINI ISHLASH

Birinchi topshiriqdan farqli ravishda boshni yasashda talabalar dastlabki niqob va bosh suyagini yasash bo'yicha mashg'ulotlardan olgan bilim va ko'nikmalariga tayanib bajargan bo'lsalar, tekislikda bosh relefini yasash bilan talabalar endi birinchi marta duch kelmoqdalar. Dasturning bu bo'limiga nazariy va amaliy jihatdan ham katta e'tibor beriladi.

Hajmli haykaltaroshlik va relief - plastika turlari bo'lib ularning asosida ob'ektni uch o'lchovda tasvirlash yotadi. Dumaloq, haykal haqiqiy ko'rinishda ularning balandligi, kengligi va chuqurligini haqiqiy o'lchovlarda ko'rsatilishini talab qiladi, relefdan faqatgina ikkita o'lchov-balandligi va kengligi haqiqiy bo'lib qolaveradi, chuqurlik esa shartli ravishda ko'riladi

va turlicha chegarada olinishi mumkin. Tasvirning chuqurligiga qarab relefini ikki turga ajratiladi: gorelef va barelef. Barelef dumaloq haykalning $1/3$ nisbatlari chuqurligi asosida ko`riladi, gorelf esa haqiqiy haykalning $2/3$ yoki $3/4$ nisbatdagi chuqurligida quriladi.

Haykal tasvirlari relefda tomoshabin uchun hajmli o`rinishi va dumaloq shakli hissini uyg`otishi kerak.

Haykaltaroshlik relefi hajmli shaklni chuqur o`rganib chiqish asosida quriladi. Releflar usulida boshni yon tomonidan tasvirlash ancha ko`proq tarqalgan, lekin to`rtdan uch qismiga burilgan va anfras ko`rinishlari ham tez - tez uchrab turadi.

Odam boshi relefini yasash oldingi qalamtasvir mashg`ulotlardagi boshning hajmini o`rganishda qo`llanilgandek, klassik gips namunalar asosida bajariladi. Bu metodika to`g`ridir, chunki ikki topshiriq, ham bir modeldan bajarilsa talabalar materialni yaxshi o`zlashtiradilar. Dumaloq haykalda o`rganilgan hajmli shaklni ular yanada yaxshi aniqlagan holda endi uni relefda namoyon etadilar.

Ko`pgina holatlarda relefli tasvirlar arxitektura elementlardan iborat bo`lib, devorlarda joylashtiriladi va u bilan yahlitlikni tashkil etadi.


O`quv topshiriqlarida releflar taxtachalarda amalga oshiriladi. Taxtacha talabaning ko`zi balandligidagi haykaltaroshlik dastgohida vertikal holatda qo`yiladi. Gips namunasi ham shunday balandlikda qo`yiladi. Boshning tuzilishini aniq ko`zatish maqsadida ikki talabaga bitta model beriladi. Talaba modeldan 1,5 - 2,0 metr masofada turadi.

Bosh relefini ko`rik o`quv ishlari asosiy zamin tekislikdan boshlanadi. Taxtagacha 3 - 4 sm qalinlikda loy qatlami berib chiqiladi va uni tekislab olinadi. Bunday tekislab olingan yuzaga stek yoki pichoqqa uchi bilan bosh va bo`yinning ko`rinishi engil qilib chizib olinadi. Tasvirni taxtachasining yuqori tomoniga yaqinroq joylashtiriladi, yuz tomonida va bosh orqasidagidan ko`proq masofa oraliq. olinadi. Shuningdek boshning umumiy hajmi taxtachaning yuzini iloji boricha to`ldirib turishi kerak. Keyingi bosqichda boshning yuz qismi

abrisi aniq qilib chizib olinadi. Unda boshning asosiy nisbatlari, model harakterini aniqligiga va to'la o'xshashligiga erishish kerak. Relif bosh hajmlarini chuqurlikda perespektiv qisqarish printsipi bo'yicha quriladi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, hajmlarning chuqurlikka qisqarib borishi perspektiva qonunlarining asosi bo'lgan - "Oltin kesim" nisbatlari qonuni bo'yicha amalga oshirilishi kerak. "Oltin kesim" qonuni qo'yidagi nisbatlarda: 3:5, 5:8, 8:13 va hokazolarda belgilanadi.

Boshni yon tomonidan relefini tasvirlash vazifasini bajarishda eng avval boshning o'rta holatini aniqlab olish kerak. Agar dumaloq haykaltaroshlikda o'rta chiziq shaklni teng ikki qismga ajralsa profil relif tasvirda o'rta chiziq asosiy tekislikka yaqinroq bo'ladi va relif hajmini 3:5 nisbatida ajratadi.




22-rasm

Boshqacha qilib aytganda, agarda relif chuqurligini shartli ravishda sakkiz birlik 1 qismi sifatida olsak unda oldingi ko'rinishdan o'rta tekislikkacha besh birlikni, o'rta tekislikdan asosiy tekislikkacha esa uch birlikni tashkil etadi. Bu vazifani bajarishda relefini o'rta tekislik (chiziqqa) nisbatan besh birlik qism chuqurligida bajarib, ko'zatuvchiga boshning ko'rinib turuvchi qismini aniqlash, relefiing ko'zga ko'rinmas qismi uch birlikdan iborat

bo`lib, taxta fonid mavjud bo`ladi.

Amaliy mashqlarda relief tekisligini asosiy tekislikka parallel ravishda ma`lum qalinlikda loy yotqizib chiqib hosil qilinadi. Bu boshning yon tomonidan ko`rinish siluyetini eslatadi. Ana shu ko`rinishda boshning tasviri aniqlanadi, nisbatlari yaxshilab tekshiriladi.

Keyingi boqichda relief hajmi loy bilan o`stirib boriladi va kallaning anatomik tuzilishidan kelib chiqib boshning hajmini asosiy sakkiz o`lchovlarini aniqlaymiz, ular asosida relief ko`riladi: 1 - burun qalinligi, 2 - peshona do`ngligilari orasidagi masofa, 3 - og`iz kengligi, 4 - kalla suyagining ko`z kosasi chetki nuqtalari orasidagi masofa, 5 - pastki jag`lar burchaklari, yanoq; suyaklari o`rtasi, 7 - tepa suyaklari orasi, 8 - quloqlar o`rtasidagi masofa.



23 - rasmlar

Boshni yon tomonidan qaraganda bu hajmlar go`yoki zinapoya kabi turli chuqurlik va do`ngliklardan iborat bo`lib, biz tomonga chiqib kelayotganga o`xshashini ko`rish mumkin. Bu esa boshning anatomik tuzilishi va konstruksiyalaridir.

Vazifani yaxshi tayyorlangan, qo'l bilan yumshatilgan, toza loy bilan amalga oshirish kerak. Ishni o'ylab, ma'lum tartibda, olib borish va loyni bekordan bekorga surtavermaslik, ortiqcha shakllar paydo qilmay olib borish kerak.

Loydan yasashni uzoq ko'rinishdan boshlanadi. Eng avval burun kattaligi yasaladi. Ikkinchi planda asosiy tekislikka perpendikulyar qilib peshona do'ngliklari joylashishi bajariladi.

Keyingi bosqichda ko'z kosasi chuqurligi shakllantiriladi. Taxminan ana shu balandlikda yuqori va pastki jag'lar birlashgan qismi joylashadi. So'ngra chakka suyaklari, pastki jag'ning ifodasi, yanoqlar, chakka suyaklari quloqlar yasab boriladi. Shakl bo'laklarining nisbatlari boshning anatomik tuzilishdan kelib chiqib, uning haqiqiy asl ko'rinishiga teng qilib olinadi. Relif ishlashda bir ko'rinish ikkinchisiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunday ketma - ketlikda ishni qismlarga ajratib bajarish bo'laklarni alohida ko'rish degani emas. Tasviriy san'atning klassik ish uslublari - umumiydan hususiyga va hususiydan yana umumiyga - kridasi haykaltaroshlikning bosh relefini bajarishning ham doimiy sharti bo'lib kelaveradi. Vazifani bajarishda ko'zni shunday o'rgatish kerakki, bir vaqtning o'zida ham umumiyini, ham hususiyini ko'ra olib, ularni bir biriga bog'lash kerak.

Relif perespektiva qonunlari asosida, boshning o'rta tekisligini hisobga olgan holda ketma - ketlik tartib bilan yasaladi. Ba'zi bir o'lchovlar va nisbatlarni aniqlash uchun tsirkul ishlatish mumkin, lekin hamma vaqt ham undan foydalanaverish mumkin emas. Ko'zning, sezish qobiliyatini rivojlantirish va ularga ko'proq ishonish kerak. Bu borada o'rta asr rassomi va tasviriy san'at sohasidagi nazariyotchisi I.Sandrat shunday degan edi: «Shuni doim yodda to'tish lozimki, keragidan ortiq o'lchab tasvirlash rassomga foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin, ko'z bilan chamalab chizish va shu asosda ko'plab mashqlar bajarishi uning muvaffaiyatini belgilaydi».

Boshning yon tomonidan relefini bajarganda har doim uni haqiqiy namunaning oldidan, yonidan, pastidan qarab solishtirib borish kerak.

Boshni turli yorug'liklarda yasash kerak. Buning uchun dastgohni turli holatlarga burib yorug'lik tushish yo'nalishini o'zgartirish mumkin. Bu esa xatolarni o'z vaqtida aniqlashga va ularni tuzatishga yordam beradi.

Talabalar ishlarini korib tahlil qilib chiqish natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pincha ular bir xil xatolarga yo'l qo'yadilar.

Ba'zan talaba ishga berilib ketib yon tomonidan ishlayotgani esidan chiqib boshqa holatdan modelga qaray boshlaydi va shunda ba'zi tasvirlar to'rtan uch qismli talqin oladi.

Relefni yon tomondan kuzatib tekshirganda ko'pincha burun ko'z kosasi tashqi aylanasi kengroq, og'iz esa burundan kichikligi aniqlanadi, quloqning eshitish teshiklari xaddan tashqari chuqur, uning chanog'i esa haqiqiy hajmda tasvirlanadi.


Yon tomondan tasvirlashdan farqli ravishda to'rtan uch holatli boshni tasvirlashda bosh tekisligi asosiy tekislikka parallel emas, balki unga nisbatan biroz burchak ostida bo'ladi. Bosh relefini to'rtan uch qism holatda bajarish bosqichlari ketma - ketligi tartibini ko'rib chizamiz.

Loy yopishtirib chiqilgan fon tekisligida bosh surati chizib olingandan keyin, uning old tomoni peshona - yuz tomonini va boshining yon tomonini ajratib turuvchi chegarani aniqlab olish kerak 33 - rasm a. U chekka qismidan o'tib borib, ko'z kosasi tanhi qirrasiga o'tadi va yanoq chetidan, so'zlash jag' suyagining uchi hamda datsan dunligiga tushadi. Shundan keyin relief chuqurligi va boshning yuz va orqa tomonini chegara chizig'idan kelib chiqib relefni ko'rishga kirishish mumkin. Boshning yuz tomonida ko'zlar joylashadigan tekislikni aniqlab chiqamiz va relefning o'rta tekisligiga mos keluvchi, chuqurlikni 3:5 nisbatga bo'luvchi simmetriya o'rta chiziqni o'tkazamiz.

Relief bajarish keyingi bosqichlari 33 - s, d rasmda ko'rsatilgan. Bunda o'rta chiziqda burun piramidasi, og'iz, ba'zan ko'riladi, ko'z kosasi ko'rsatiladi, yanoq, suyaklari, pastki jag' yasaladi. Shundan keyin relief chuqurligi hajmi perespektiv qisqarishini hisobga olingan holda ish davom

ettirilib, ishlab chiqishga kirishiladi. To'rtidan uch ko'rinishda relief ishlarida bosh shaklini asosiy tekislikka parallel qilib foydalanmaslikka harakat qilish kerak, chunki bu relief ko'rinishini buzadi. Aytib o'tilgan ketma - ketlik tartibida ish olib borish har qanday chuqurlikdagi reliefni bajarish imkonini yaratadi (eng past barelefdan tortib, to baland gorelefgacha). Ammo shuni esda saqlash kerakki, relief chuqurligi ortib borgan sari o'rta tekislik asosiy fon tekisligidan uzoqlashib boradi.

Shu sababli esa o'rta tekislik bilan asosiy fon tekisligi orasida joylashgan bosh hajmini konstruktiv ishlab chiqish zarurligi ko'proq; bo'ladi. Bu shuning uchun kerakki, reliefni tomoshabin yon tomonidan ham ko'zatisi mumkin.



24-rasmlar

GIPS MODELLARDAN ODAM BOSHINI ISHLASH

Haykaltaroshlik bo'yicha asosiy mavzu - odam bosh haykalini yasash mavzusi bir vaqtning o'zida qalamtasvir kursida ham o'rganiladi, bu esa o'quv jarayonini samarali bo'lishi yordam beradi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki inson boshi haykalini yasash rasm chizishda katta yordam beradi, chunki haykaltaroshlikda talabalar hajmli shakllar ko'rish tartiblarini ko'zatishlari osonroq. Bu jarayonda, ular boshning konstruktiv xususiyatlari va plastik tuzilishlarini tushunib oladilar. Shuni aytib o'tish kerak odam boshi haykalini ifoda etish tasviriy san'atning hamma turlarida ham o'quv dasturining eng qiyin bo'limidir.

Odam boshini haykaltaroshlikda o'rganish tayyor namunalardan nusxa olishdan boshlanadi. Eng ko'p tarqalgan namuna qadimgi Yunon va Rim portret san'ati modellari hisoblanadi. Nusxa olish qisqa vaqtda nafaqat haykal ishlash texnologiyasini o'zlashtirish, balki haykaltaroshlik san'atini tushunib olishga imkon beradi.

Mashg'ulotlar davomida talabalar gips model atrofida bir-biriga halaqit bermaydigan va yaxshi ko'rinadigan masofada joylashishlari kerak.

Talabalar topshiriq bajarish tartibini yaxshi o'zlashtirib olsalar, keyinchalik tirik modelni ishlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Birinchi topshiriq, boshni bo'yin bilan old tomonidan ko'rinishni yasash.

Boshning o'lchami haqiqiy kattaligida olinadi. Model harakterini etkazib berishga eng avval to'g'ri olingan nisbatlar bilan erishiladi. Dastlab, bosh umumiy ko'rinishida yaxlit yasaladi. Ishni zarur o'lchamlar sinchini ko'rishdan boshlanadi. Sinch dasturi atrofida loydan bo'yin aylanasi yasaladi, uning ustida esa bosh shaklining tuxumsimon ko'rinishi ko'riladi. Boshning konstruksiyasini hisobga olib bo'yin, yuz qismi va orqa miya asosiy kattaliklari nisbatlari aniqlab olinadi. Ishni kesish usulida tashkil etish kerak, ya'ni asosiy konstruktiv ko'rinishlarni aniqlash va model

harakteri va nisbatlarini hisobga olib ularni fazoda simmetrik joylashtirishdan iborat. Shundan keyin yuz burchagi aniqlaladi, ya'ni qoshlar usti yoylari burunning yuqori nuqtasiga o'tkazilgan tug'ri chiziq va shu nuqtadan quloq past uchidan o'tkazilgan gorizontal chiziqlar tashkil etgan burchak. Yuz burchagi, kalla suyagi va yuz qismining o'zaro holatlarini aniqdaydi. Yuz qismi oldinga chiqqan, ichkariga kirgan, yoki bir chiziqda yotgan bo'lishi mumkin, shunga qarab, insonning turli xil harakterli o'tkir, o'tmas va to'g'ri yuz burchaklarni bilish mumkin.

Ish davomida yuzning qismlari va kalla suyagi shaklini aniq bilib olish zarur. Shundagina ko'z, burun, og'iz, quloq va ularning o'zaro joylashishlari hamda nisbat namunalarining harakteri haqida yaqqol tasavvurga ega bo'lish mumkin. Bosh qismlari konstruktiv o'zaro bog'likliklari asosida, yaxlit bir hajm harakterini saqlab kurish kerak bo'ladi. Ishni bajarishda doimo boshning o'rtasidan kesib o'tuvchi simmetrik chiziqni ko'zatib borish kerak.

Bundan tashqari ishni boshlashda frontal utsh chizig'ini ham aniqlab olish lozim. Bu chiziqda quloq chuqurliklari, teshigi, belgilanadi, pastki jag' uchlari birlashadi.

ODAM BOSHI ETUDINI ISHLASH

Haykaltaroshlik bo'yicha o'quv mashg'ulotlari dasturida odam boshi etudini bajarish ko'zda tutilgan. Bunga qadar 1 - va 2 - kurs talabalari boshning gips namunalarini, plastik anatomiya kursi bo'yicha esa - boshning kalla suyagi va muskullarini yasaganlar.

Gipsli namunalarida nusxa yaratishda talabalar boshning tayyor, harakatsiz shakllarini kurib ishlaganlar. Klassik haykallar juda ko'p ijodiy materiallarga boy bo'lib, bu namunalardan nusxa olishda talabalar nafaqat amaliy ko'nikmalar o'zlashtiradilar, balki inson boshini fazoviy hajmini tasvirlash qonuniyatlari bilan ham tanishib boradilar. Ammo nusxa olish ko'proq, darajada mexanik hususiyatda bo'ladi. Ishga qiziqib berilganda talabalar pedagog rahbarligida deyarli bir xil

natijalarga erishadilar. Odam tirik boshining nusxasini naturaga qarab, yaratish - o'quv jarayonining ancha qiyin bosqichidir. Tirik modeldan etyud yasash to'raligicha ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ko'p jihatdan bunda talabaning individualligi, konstruktsiya va haykaltaroshlik tilining o'ziga xosligini anglab etishi bilan aniqlanadi.

Tirik model ustida ishlash ijodiy jarayon ekanligini bir modeldan bir necha haykaltarosh - mutaxassislarning bajargan asarlari yaqqol ko'rsatib beradi, ular bir - biridan umuman farq qiladi.

Har bir etudda rassomning va individualligi, shaklni ko'rish va tushunishi, konstruktsiyani qay darajada tuzishi ko'rinib turadi. O'xshashliklari masalasini har biri o'zicha hal qiladi: bir rassom o'xshashlikni tashqi ko'rinishini berilib ko'rsatishga harakat qilsa, boshqalari uning psixologik holatini chuqurroq, aks ettiradilar, uchinchilari esa modelning konstruktiv karakteristikalariga e'tiborni qaratadilar.

Bir ijodkor keng, umumiy tasvirlashga harakat qilsa, boshqasi badiiy mazmunga erishish uchun shaklni batafsil ishlab chiqish va noziklik nafislikka erishishga harakat qiladi. Ammo ularning hammasi ham yaxshi natijalarga erishadilar. Ular bir ijodkor o'zining uslubi va anglashi bilan ajralib turadi.

Birinchi bor bosh etudini yasashga kirishgan talaba ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Tirik model harakatlanishidan tashqari emotsional psixologik qiyinchiliklar ham tug'diradi. Inson fe'li, yuz ifodasi, tirik shaklning ta'siri shunchalik kuchliki, talaba ularga berilib ketib o'xshatishga harakat qiladi, shu bilan boshning tuzilishi, anatomiyasi nisbatlari haqida esidan chiqarib qo'yadi.

Bosh etudi haykalini yaratish gips namunasidan bajarilsa ham tirik odam boshiga qarab yasalsa ham ish tartibi bir xil bo'ladi.


Badiiy - grafika fakulteti talabalariga yuklanadigan vazifa va dastur talablariga binoan tirik odam bosh haykali etudini yaratish jarayonining ba'zi bir tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Ish asos yasashdan boshlanadi. Etudning kattaligi kompozitsiyasiga qarab asoslar turlicha bo'ladi. 25, 26 - rasmda boshni bo'yin bilan va elka kengligi bilan


yasash uchun karkaslar ko'rsatilgan. Karkas balandlikdagi metall tayoqcha bo'lib, uning uchiga simlarda loyni ushlab qolish uchun yog'och bo'lakchalari mahkamlangan.

Byustlarni yasashda elka kengligi uchun qo'shimcha tayoq, mahkamlanadi. Ba'zan karkas yog'ochdan ham bo'lishi mumkin..

Xuddi rangtasvir, qalamtasvir mashg'ulotlari kabi 16 – 18 kishidan iborat talabalar guruhiga ikkita model, taklif etilad. Namuna sifatida yoshi kattaroq yuzi aniq ifodali va kalla suyagi tuzilishi yaqqol ko'ringan bo'lsin. Har bir talaba namunani yaqqol ko'ra olishi uchun kerakli masofada to'g'ri joylashib olishlari kerak.



25-rasm



26-rasm

O'quv dasturiga ajratilgan vaqt davomida talabalar ikkitadan etud yasashi kerak: asosiy etud 12 soat davomida va boshqa modeldan qisqa vaqtlisini 4 soatda bajaradilar. Turli modellardan etud yaratish alohida odamlar tuzilish shakllari va harakterini chuqurroq o'rganib olishga yordam beradi. Vazifani osonlashtirish uchun haykalni haqiqiy kattalikda, to'g'ri qaragan vaziyatda yasash tavsiya etiladi.

Ishni boshlashdan avval hamma narsani tayyorlab olish, ish sharoitini yaratish kerak. Ko'pincha talabalar karkasga loyni tartibsiz, to'g'ri kelgancha yopishtirib tashlaydilarki, shundan so'ng karkasni ham, modelni ham ilg'ab

bo'lmaydi.



27-rasm


Bu noto'g'ri, loyni qo'lga olishdan oldin naturaning harakteri xaqida aniq tasavvurga ega bo'lish, uni diqqat bilan o'rganib chiqish, turlicha yorug'liklar har tomondan kuzatish kerak. Boshning turini aniqlab olish zarur. Old tomondan qaraganda boshning to'rtta asosiy shakli bo'ladi.

To'g'ri to'rtburchak shaklida, chakka, yuqori va pastki jag'lar chekka nuqtalari aytaylik bir vertikal, to'g'ri chiziqda joylashgan.

1. Qiyshiq; to'rtburchak shaklida.
2. Uchi pastga yo'nalgan konussimon.
3. Uchi yuqoriga yo'nalgan konussimon.

Shundan so'ng yuzning burchagi aniqlanadi. Uni ikki tekislik bilan olinadi: biri qoshi ustidan dunglik va 5 jag' bilan birlashgan nuqtalaridan to'g'ri chiziq o'tkazib, burunning pastki nuqtasi va quloq uchidan o'tkaziladi. Shuningdek uning burchagi bosh miya va yuz qismlari joylashishlari bilan aniqlanadi. Yuz qismi ichkariga kirgach, *L* tashqariga to'rtib chiqqan bo'lishi mumkin. Yuzning burchligi to'g'ri, o'tkir va o'tmas bo'lishi mumkin (27- rasm).

Namunani boshqa tomondan ham o'rganib chiqish kerak. Aynan ana individga xosliklarni ko'rib olish, boshning alohida qismlari ichki nisbatlarini aniqlab olish kerak. (yoshi, soch tuzilishi va boshq.) Modelni o'rganish uchun bir mashg'ulot o'tib ketishi mumkin. Faqatgina o'ylab va anglab yetish boshlangan ishgina yaxshi natija beradi. Modelni o'rganish uchun bir mashg'ulot o'tib ketishi mumkin. Bu vaqtni bekorga ketgan deb hisoblash kerak emas, faqatgina jiddiy o'ylab va anglab etib boshlangan ishgina yaxshi natija beradi.



28-rasm

Boshni bo'yin bilan yasashda ish plintdan boshlanadi. U har qanday haykal uchun asos, uning tagi hisoblanadi. Boshni haqiqiy kattaligida yasash uchun plintni 15 x 15 sm va 2 - 3 sm qalinlikda olish mumkin.

Karkasning ustupi atrofiga bo'yin qalinligida loy yopishtirib chiqiladi. Bunda ustun o'rtada turishi kerak va keyingi ishlarni bajarayotganda tashqariga chiqib qolmasligi kerak. Loy qatlami ustun ichki qismini kamida ikki santimetr qoplab turishi lozim. Bo'yinning loyli asosida tuxumsimon shaklda bosh yasalib, uning yuzi va orka tomonlari shakllantiriladi. YUz tomoni plintning old tomon tekisligiga to'g'ri olinadi. Bu bosqich boshning umumiy hajmini yaratish bosqichidir.

Tajribali haykaltaroshlar haqiqiy kattalikdagi portret ustida ishlaganlarida havo va fazoni ham hisobga olib uni bir oz kattaroq. yasaydilar, ya'ni asl kattaligidan 1,25 meyorida. Shunda uni 3 - 4 metr masofadan ko'zatganda haykal asl kattaligida yasalgandek taassurot uyg'otadi.

Boshni yasash boshlanganda bo'yin uzunligi yuz uzunligi bilan bir xilda bo'ladi, ya'ni daxandan burun boshlanish yuqori nuqtasigacha masofa olinib bu butun boshning balandligi yarmini tashkil etadi.


Ishning keyingi bosqichi boshning taxminiy geometrik shaklini yaratishdir, ya'ni asosiy ko'rinishlari va nisbatlarini. Shuningdek model hususiyatlarini ko'rsatuvchi boshning taxminiy shakli yasaladi. Bu bosqichni shaklning ko'rinishini hosil qilish deb atash mumkin. Vazifani talaba qanchalik yaxshi bajara olsa, ishning haqqoniy chiqishiga asos solingan bo'ladi. Shaklni qilishda talabadan boshning tuzilishini hisobga olishganini taqazo etadi. Bu bosqichning qiyin tomoni shundan iboratki, ilgari o'rganilgan yuzning o'n to'rt ko'rinishi bilan boshni kesib ko'rsatilishi bo'limlari bilimlariga tayanib talabaning ish yuritishidir. Turli modellarda faqatgina ko'rinishlar shakllarigina o'zgaradi, lekin ularning chegaralari va soni o'zgarmaydi. Ko'rinishlar «Haqqoniy» bo'lishi kerak, ya'ni ma'lum nisbatlarda va o'zaro bog'liqlikda. Masalan, peshona o'rtasi ko'rinishini olib qaraymiz. Peshona do'ngligi keng joylashgan odamda u keng bo'ladi. Chuqur kirib boruvchi ko'z ko'rinishlari ko'zning chuqur joylashganini bildiradi. Kerakli ko'rinishlardan bo'lgan burun balandligi va kengligini, yonoq, suyaklari chuqurligi aniqlab olinadi.

Ishlarni ilgari aniqlab olingan bosh qismlarining konstruktiv bog'liqliklari asosida, turi hususiyatlariga, yuz burchagi quloqlar joylashishiga qarab olib boriladi. Jag' aylanasi hususiyatini e'tiborga olib ish davom ettiriladi. Soch tuzilishi ham sxematik yasaladi, fazoviy - hajmli ko'rinishini yaratayotib boshning alohida qismlari, nisbatlarini ham esda tutish kerak. Haykaltaroshlikda hajm va og'irlik, nisbatlar asosiy tushunchalardir, ular bir - birini to'ldirib boradi va haykaltaroshga plastik tuzilishi va boshning arxitektonikasiga chuqurroq; kirib borishga yordam beradi. Modelning o'ziga xoslik hususiyatlarini saqlab qolishga

eng avval ushbu namunaga xos bo'lgan boshning to'g'ri olingan nisbatlari va nisbatlari bilan erishiladi. To'g'ri ishlangan ko'rinishlar va hajmlarning o'zidayoq, o'xshashlik belgilari bilan modelning plastik harakteristikalari paydo bo'ladi. Bizga ma'lumki, uzoq, masofadan yuzini yaxshi ajratib ko'ra olmay turib ham umumiy ko'rinishdan bizga ma'lum odamni tanib olamiz. Haykal ishlashda ham to'g'ri topilgan bo'laklar asosida modelning inson boshini yasash ishlari 50 tartibi loyni natija, maqsadsiz bir eridan ikkinchi joyga yopishtiraverish, uning tuzilishini hadeb o'zgartiravermay talabadan fikrlab ishlashni talab etadi. Bu esa keyingi murakkaroq ishlarni bajarishda yordam beradi, vaqtni tejaydi.

Boshning geometrik ko'rinishini ko'rib bo'lgach keyingi bosqichlarda: plastik anatomiyaga asoslangan usulda bosh suyagini aniqlashga o'tish mumkin.

Inson boshinini umumiy shaklini ko'zatib biz unda suyak tuzilishi va yupqa qoplamini ko'ramiz. Yuzning yumshoq qoplamida yoshi o'tishi bilan turli o'zgarishlar bo'ladi, boshning kalla qismi esa, o'z ko'rinishini bir oz o'zgartirsa ham bosh shaklini tashkil etuvchi asos, qattiq konstruksiyaligicha qoladi. Boshning suyak asosi muskullar va teri - yog qoplami qalinligiga qarab turli qismlarida etarli darajada ko'rinib, sezilib turadi.



Bosh suyakdagi bo'rtib turgan nuqtalar

29- rasmda boshning yuz qismi suyaklarining bo`rtib turgan dung joylar sxemasi ko`rsatilgan, Bosh suyagining hamma qismlari asosan juft va ularni iloji boricha bir vaqtda yasash kerak. Shuningdek ularni boshning o`rta chizig`i, simmetrik o`rnini saqlash kerak.

Kesib ishlash usuli bilan boshning asosiy ko`rinishi shaklini ko`rib olib, keyin kalla suyagi tuzilishi va harakterini aniqlab bo`lib boshning yumshoq qoplamlarini yasashga o`tish mumkin. Shu erda aytib o`tish kerakki bosh namunasining suyak asosi teri qoplamlarini hisobga olib modellashtirish amalga oshirilib bo`lingan.

Keyingi ishlarning qiyinchiligi shundan iboratki, yuzning mimika va boshqa ifoda etish muskullari juda ham ko`p harakatchanligi sababli insonning psixologik harakatiga qarab boshning yumshoq, qoplami har daqiqa sayin o`zgarib turadi.

Ko`pgina yuzlarning simmetriyasi buziladi, lekin simmetriya ham unchalik ko`p bo`lmaydi va boshni ko`rish unga ko`pam bog`liq bo`lmaydi. Boshning hajmini juft bo`lgan do`nglik va ichkariga chiqqan yuzaliklar tashkil etib ularni haykalda ko`rsatib berish muhimdir.

O`quv etudining ijodiydan farqli tomoni shundaki, bunda namunaning psixologik hususiyatlarini ochib berish maqsad qilib olinmaydi. Bu etuk mutaxassisning vazifasi. Talabalardan boshning umumiy ko`rinishi, ortiqcha mayda detallarsiz ko`rinishda yasash talab etiladi. Ammo bu vazifani soddalashtirish deganini anglatmaydi. Umumlashtirish katta konstruktiv shakllarni, ularni bir - biriga bog`lab ishlashni ko`zda tutadi. Bunda uning bo`laklarini ko`rsatishga harakat qilish shart emas.

Inson boshi individual farq qilishiga qaramay umumiy anatomik tuzilishga ega. Boshning anatomiyasini talabalar 2 - kursda batafsil o`rganganlar. Bu anatomik bilimlarini talabalar endi bosh etudini kurit da qo`llashlari kerak. Ishni bir vaqtda ikki yo`nalishda olib borishga to`g`ri keladi: bir tomondan boshning butun tuzilishini yahlitligi fazoviy hajmini va uning plastik tuzilishini aniqlab borish, ikkinchi tomondan - anatomik bilimlar asosida modelning ichiga chuqur

kirib, shaklni plastik va 52 funktsional mazmun bilan to'ldirish, muskullar va teri yog' qoplamini aniqlab borish. Bu ikki vazifa bir - biriga bog'lanadi va namunadan to'g'ri ish olib borish hamda anglab etishga bu katta yordam beradi.

Bosh suyagini qay bir darajada qoplab turgan va uni shaklini takrorlovchi teri - mimika muskullari bilan bir katorda jag' va chakka muskullarini alohida aytib o'tish zarur. Ular yuzning plastikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek yuzning individualligi ko'z, burun, lablar, bo'yin shakllari bilan ham belgilanadi, ular boshning badiiy - anatomik elementlariga taalluqlidir.

Bosh etudi namunasini ko'rishda uning bo'laklarini alohida emas yahlit qismlar sifatida tasvirlashga to'g'ri keladi. Bu elementlar hamma odamlarda ham bir xil anatomik tuzilishda bo'lsa ham, ammo ularning shakli har xil bo'ladi, shuning uchun ularni haykalda batafsil ko'rsatishga to'g'ri keladi. Ular quyidagilardan iborat:

Burun yuzning eng ifodali qismidir. Uning shakli hamma odamda turlicha.

U uchburchak piramidadan tashkil topib, uning pastki qismini burun qanotlari va kataklari tashkil etadi, yuqori qismi esa burun - peshona chuqurligi bilan to'g'ri keladi.

Burun shakli suyak asosi yuqori qismi, pastda esa - bir guruh burun kemirchaklari bilan belgilanadi.

Burun shaklining to'g'ridan va yonidan nisbatlari va asosiy ko'rinishlarini aniqlab olingandan keyin, yuzning o'rta chizig'idan boshni pastdan ko'zatib burunning pastki uch qismi shakli tasvirlanadi. Bu esa burun qanolarini burun kataklari shakli va ko'rinishini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Bu ko'rinishlar burunning hususiyatlarini ko'rsatib berishi kerak (qirra burun, puchuq burun va shu kabilar).

Birinchi bosqichda burunning kataklarini to'la ko'rsatish kerak emas. Ko'pincha talabalar boshni umumiy ko'rinishda bajargan bo'lib, burunni esa oxirga etkazib bo'ladilar. Bu esa metodik jihatdan noto'g'ri.

Boshni yon tomonidan kuzatilganda burunning yuqori jag'dan chiqib turishi kattaligiga va qanotlariga hamda bu kattaliklarning bir biriga nisbatlariga

etiborni qaratish kerak.

Yon tomondan qaraganda burunning hususiyatlari ham yaxshi ko`rinadi, (burun, peshona chuqurligi). Erkaklarda u ancha aniqroq bo`ladi, ayollarda ko`pincha tekisroq bo`ladi. Burunning uchi ham turlicha bo`ladi, shuning uchun aylana radiusini aniqlash kerak bo`ladi.

Burunning tuzilishini yanada aniqlab borib, uning shakllarini ifoda etish uchun turli vositalar izlash kerak u aniq qirralari bilan tasvirlanadi, to`qima bo`g`in qatlamlari esa - ancha tekis va yumshoq. Burunni yasashda boshqa anatomik plastik ko`rinishlarni, ularni modellari o`ziga xosligini ifoda etib borish kerak.

Ko`zni tasvirlashga o`tishda u talaba uchun juda ham qiyin masala ekanini aytib o`tish kerak.

Boshning birinchi o`quv etoyudini bajarishda faqatgina ko`zning tuzlishi shakli konstruktiv hususiyatlarini ko`rsatib berishga intilish kerak. Ko`zni tasvirlab berishda yana bir qiyinchilik shundan iboratki, ular juft shakl bo`lib birgalikda harakatlanib turadi. Shuning uchun fakatgina hajmi va anatomik masallalardan tashqari talaba simmetriya va hajm masalalarini ham echishga to`g`ri keladi.

Ko`zning shar shakli bosh suyagining ko`zlar kosasida joylashadi.

Diqqat bilan qaraganda ko`z kosasi suyaklari har bir odamda aniq ko`rinadi. Oriq odamda ancha aniqroq, to`la odamda ko`z kosasi suyaklari pastki qismi aylana muskullari ancha bo`rtgandir. Ilgari aytib o`tilganidek, turli chuqurliklar shakli va kattaligini aniqlashga katta e`tibor berish kerak.

Ko`z kosasining qirralari ko`zni ko`rish uchun asos hisoblanadi. O`zining yarim shari bilan ko`z olmasi ko`z kosasidan ozgina tashqariga chiqib turadi. Bu esa boshni qimirlatilmay turib 180° ni ko`rishga imkon beradi.

Ko`z ustki tomonida uni himoyalovchi, mustahkam, ko`z kosasining soyaboni bo`lgan, peshona suyagining qirrasi chiqib turadi.

Ko`zning baland pastga qimirlashi unga ulangan, ko`zning aylana muskullari deb ataluvchi muskullar bilan amalga oshiriladi. Ko`z yuqoridan va pastdan ko`z qovoqlari bilan berkitiladi, ular ko`zning aylana muskullarining ancha qattiq qismi hisoblanadi. Yuqori va pastki qovoqlar ko`z yoshi chiqarish

chuqurchalaridan boshlanib ko'zning tashqi chekkasida birlashadilar. Tashqi burchaklari har doim ichki yosh chiqarish burchaklaridan balandda va uzoqda joylashadi. Ko'zni ko'rishga boshlaganda eng avval ko'z kosasida ko'z olmasini joylashtirish kerak, uning haqiqiy kattaligi taxminan 2 sm. ni tashkil etadi. Ko'zning olmasini chiqib turishini to'g'ri ko'rsatish uchun unga yonidan va pastdan qarash kerak bo'ladi. Ikkinchi ko'zni ham huddi shunday o'rganiladi, chunki ularning bir xilligini ta'minlash kerak. Ko'zning yosh chiqarish chuqurchalari o'rtasidan masofani aniqlab olib va uning bosh suyagi boshqa qismlariga nisbatan chuqurligini belgilab qovoqlarini yasashga kirishish mumkin. Oldin yuqoridagisi keyin esa pastdagi shakllantiriladi. Yuqori qovoq; o'rtasi chetidan ko'ra kengroq. Ko'zning tashqi aylanasi qovoq pastkisidan uzunroq va uni yopib turadi.

Ko'z qorachig'i ko'z olmasining markazida joylashadi va eng tashqariga chiqib turgan nuqtasi hisoblanadi.

Boshning birinchi etudida asosiy e'tiborni faqatgina halkaltaroshli masalalariga qaratib, bodni uslubdan farqli ravishda ko'z qorachig'ini ifodalashda ko'zning shar ko'rinishidagi hajmli shakl bilan yaxlitligini xal etamiz.

Ko'z qovoqlari va ko'z olmasi harakatlari yordamida ko'zning aylana muskullari insonning turli psixologik xislatini ifoda etib beradi. Yuqori qovoqning ishlashi va harakatlari uning plastikasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'z ochiq holatda turganida yuqori qovoqlar taxlanadi va peshona suyagi tagiga kirib ketadi, bu esa rassomga yuqori qovoqni pastkisiga nisbatan ancha baland - pastliklari bilan tasvirlashga asos bo'ladi.

Agarda uning cheti kipriklar bilan qoplanganligini hisobga olsak, unda yuqori qovoqning plastikasini kuchaytiribroq berilishi zarurligini tushunamiz. Bunday qovoqning ko'z olmasiga tushadigan soyasi ko'zni yanada yorqin va jonli ko'rsatadi.

Pastki qovoqlar qalinligini tasvirlashga diqqat bilan qarash kerak. U yuqoridan yoritilganligi uchun yarim aylana bo'lib, yaxlit ko'rinadi.

Og'izning shakli yuqori va pastki jag'lar, yuqori va pastki qator tishlar

bilan belgilanadi. Jag'lar ham pastki va yuqori lablar bilan qoplanadi, uning asosida og'iz muskullari joylashgan. U og'izni o'rab turadi va lablarga shakl beradi. Lablarning shakli va tuzilishi bevosita tishlar shakli bilan bog'liq bo'ladi. Yuqori tishlar bilan pastkilari birlashishiga qarab yuqori lab ko'pchilik odamlarda uzunroq, bo'ladi va pastkisidan ko'proq oldinga chiqib turadi. Terining shilliq pardasiga o'tish joyi lablarning hoshiyasini tashkil etadi. Uning baland, keng va qalinligiga qarab lablar ingichka, o'rta, to'la va shishgan bo'ladi.

Ularning muskul asoslari bo'lmaydi, katta elastikligi bilan ajralib turadi va turli holatlarga keltiriladi. Yuqori lablarning plastikasini uchta do'ngliklar belgilaydi markaziy va ikki yon tomonidagi do'ngliklar, ular og'iz chetki burchaklarida ichkariga qayrilgandek bo'ladi. Yuqori lab teri yuzasida do'nglikdan burunga qarab kichik chuqurcha boradi. Yuqori lab yo'ylarida og'izning aylana muskullari burun qanotlaridan og'iz burchaklariga tushuvchi burun - lab burmalarini tashkil etadi. Ular yuzning plastikasida katta rol o'ynaydi va portretlar o'xshashligida juda muhimdir. Bolalar va yoshlarda burun - lab burmalari bo'sh ifoda etiladi, yosh o'tishi bilan ularning aniqligi oshib boradi.

Pastki lab o'rtasidan kichik bir chuqurcha bilan ajratilgan ikkita do'nglikka ega. Yuqori va pastki lablarning do'ngliklari uchrashib, og'izning yopilish to'liqsimon chizig'ini hosil qiladi. Og'iz plastikasini ko'rsatishi og'iz burchaklarini aniqlash ham juda muhimdir. Quloq qattiq to'qimali bo'g'inlardan tashkil topib murakkab elipsod ko'rinishdagi chig'anoqni tashkil etadi. Quloqlarning shaklida individual bo'ladi va ko'p jihatdan yuzning umumiy xususiyatiga ta'sir qiladi. Odatda quloqning yuqori chegaralari qoshlar balandligida, pastki uchi esa burun uchi balandligiga to'g'ri keladi: Qiyaligi burun qiyaligiga moylib ko'riladi. Quloq chanog'ini asosi bo'lib kalla suyagining chakka qismidan tashkil eshitish tuynugi hisoblanadi.

Quloq chanog'ining anatomik qurilishi juda murakkab quloqni kichik hajmli tuzilishi o'z ichiga o'nta anatomik termnini oladi.

Quloqni yasash katta diqqat e'tiborni talab etadi. Ko'pchilik talabalar quloqni bevosita kallaga yopishtirib qo'yadilar. Quloqning to'g'ri tuzilishi va

konstruktsiyasini ko`rish uchun uni ko`rinishini nafaqat yonidan va oldidan balki orqadan ham o`rganib chiqib chanog`ining hajmini, kalladan ajratib ko`rsatib berish kerak.


Sochlarni yasash individual xususiyatlarini hisisobga olib umumiy ko`rinishda bajariladi. Sochlar kallani qoplab turadi va uning harakteri va turishiga qarab bir shaklni ifoda etadi.

Talaba sochlarning asosiy yo`nalishlarini aniqlab olish zarur. Peshona ustki suyagida sochlar orqaga yo`naladi, tepasida orqaga va bir oz pastga, chakka qismida esa bir oz orqaga va ko`proq pastga yo`naladi. Yuzni sochlar bilan qoplanib turish chizig`i erkaklarda ayollardagidan bir oz farq qiladi. erkaklarda sochlar peshona o`rtasida uchli burchak hosil qiladi, ayollarda esa bu chiziq tekisroq bo`ladi.

Qoshlarning shakli ham turlicha bo`ladi. Ularni katta shaklda ko`rish kerak. Qosh boshchasidan boshlanib keyin gorizontal yo`nalishni oladi, so`ngra qosh asosini tashkil etadi va uchi bilan tugaydi. Qoshlarni qurishda ham sochlar o`sishi taassurotini etkazib berish kerak.

Topshiriqqa bo`yinni ham yasash kiradi. U hamma vaqt ham portret kompozitsiyasiga kiradi va boshda u yoki bu harakatni ifoda etadi. Bo`yinning suyakli asosi bu umurtqa ustunining bo`yin qismidir. Uning asosi orqa tomondan uchli o`simta, ettinchi bo`yin umurtqa pag`onasi bo`lib ko`rinib turadi, oldi tomondan u ko`krak chuqurchasidan boshlanadi.

Bo`yinning anatomik tuzilishi juda murakkabdir. Haykaltaroshlik nuqtai nazaridan u bir qator muskullar va ularni o`rab turgan pardalardan tashkil topgan juda murakkab hajmni tashkil etadi. Old tomonda hiqqildoq do`ngligi aniq, ko`rinib turadi va erkaklarda bu do`nglik ayollar va bolalardan ko`ra kattaroq; bo`ladi.



30-rasm

Yon tomonidan bo'yin ko'krak – umrov - so'rg'ichsimon ko'ndalang baland past muskullardan tuzilganligi ko'rinib turadi. Orqa tomonida do'ngligi va ettinchi bo'yin suyagi orasida paylar o'tib, ular muskullar bilan qoplangan bo'ladi. Bu pay orqa tomon do'ngligidan kurak suyaklariga va akromial o'simtaga qarab boradi. Bo'yin plastikasini old tomonidan ko'krakdagi bo'g'in, muskullar ancha yaqqol ko'rsatib turadi, (ayniqsa bosh bir tomonga qayrilganida).

Bosh etyudini ishlashda talabalar nisbat o'lchovlarni hisobga olishlari kerak, masalan yanoq suyaklari kengligi va hakoza.

Talabalar amaliy ishlari davomida bunday, o'lchovlardan kamroq, foydalanishlari bilan birga ko'zlarni mashq qilishlari, to'g'ri nisbatlar olish, hajm,

og'irlik o'lchovlarini o'rganib olishlari ham kerak bo'ladi. Odam boshi etudini ishlash bo'yicha uslubiy ketma - ketlik tartibi ko'rsatilgan.

ODAM QOMATI HAYKALINI O'ZIGA QARAB ISHLASH

Haykaltaroshlikda odam qomatini o'ziga qarab haykalini ishlash ta'lim bosqichlarida eng murakkab, shuning bilan bir qatorda eng qiziqarli mashg'ulot turlaridan biri bo'lib, talabadan nafaqat amaliy ko'nikmalarni balki plastik anatomiya bo'yicha chuqur nazariy bilimlarni talab etadi.

Odam haykalini ishlashni oldingi vazifalardagidek ish joyini va haykal asosini bajarishdan boshlash kerak. Asosni to'g'ri ko'rib olish uchun model shaklini o'rganib olinadi. U bo'lajak tananing skeleti hisoblanib, model harakati asosning o'zidayoq to'g'ri topilgan bo'lishi lozim. Asos o'qlari odam tanasi asosiy o'qlariga moslanilib olinadi.

Avvaliga qalinligi 20 - 30 mm. taxtachalardan bir 20 x 25 sm hajmda tekislik yasab olinadi. Unga diametri 10 - 16 mm simdan asos yasab o'rnatiladi. Haykal yasaladigan "G" shaklidagi karkas asosga mahkamlanadi (31- rasm). Shundan keyin simdan qomatning asosi yasab olinadi.


Qomat qarkasi uchun simning yumshog'i olinadi, (kerak bo'lgan hollarda uning shaklini o'zgartirish uchun) shu bilan birga u mustahkam bo'lishi ham kerak. Chunki u loy og'irligini ko'tarib tura olishi kerak (32rasm).

Oyoq, va qo'llar uchun karkasni aloxida yasaladi, aks xolda bir qo'lni qimirlatganda ikkinchisi ham burilib ketishi mumkin.


Karkas gavda qismidan boshlanadi. U uchburchak shaklidagi xalqa shaklida bo'ladi. Halqaning asosi yuqoriga, bo'sh uchlarini esa kichik vertikal ustun uchidan o'tkazilib gorizontal elkaga mahkamlanadi. Kichik vertikal ustun va gorizontal qismida simni asosiy ustunga maxkamlanadi.

Gavda qismi halqasini shunday qilib olish kerakki, uning - yuqori qirrasi elka suyagidan bir oz pastda joylashsin. Gavda halqasi yuqori burchaklari ko'krak qismi suyaklaridan oldinga chiqib ketmasin.

Bosh va bo'yin uchun sim gavda xalqasidan o'tib (huddi umurtqa kabi) yuqori qismi kesishishida maxkamlanadi, keyin u kichik vertikal ustunga boradi va so'ngra gorizontal elkaga qayriladi. Ana shunda, bosh joylashadigan erda ustun halkaga o'tadi. Uning balandligi etud shaklining butun balandligida olinadi. Qo'l uchun simni gavda halqasiga uch - to'rt joydan mahkamlanadi. Qo'lni yasash uchun simning uzunligini hisobga olish kerak. Agarda u pastga tushirilgan holatda bo'lsa barmoqlarning uchi belning tahminan o'rtalariga to'g'ri keladi.



31-rasm



32-rasm

Oyoqlar uchun simlar kichik vertikal ustunga mahkamlanib, taxta tekisligiga uchlari burib qo'yiladi. Shu erda u tekislikka deyarli tegib turadi, lekin unga mahkamlanmaydi. Chunki kerak bo'lganda ularni bemalol qimirlatish mumkin bo'lsin.

Karkas asoslari tayyor bo'lganidan keyin, elka, bel va son joylashadigan nuqtalariga bir oz simlar o'rab chiqish kerak.

Bu ish simga loy qo'yilganida og'irlik qilib tushib ketmasligi, sim atrofida aylanmasligi va yaxshi yopishib turishi uchun kerak.

Haykalni yasash loyni gavda asosiga surib chiqishdan boshlanadi, uning qalinligi yasab bo'lingan karkasga qarab olinadi. Shundan keyin shaklni yasashga, harakatlarini aniqlashga nisbatlarini belgilashga va ularni umumiy yahlitlikka keltirishga kirishiladi.


Haykalni yasashda tirik modelning harakatini xis etish, uning nisbatlarini to'g'ri belgilash va shakllar plastikasi orqali etkazib berish juda muxim.

Umumiy hajmni ko'rsatib olib va nisbatlarini aniqlangandan so'ng haykalning umumiy hajmi bilan keltirishga o'tiladi. Tirik odamning haykalini yasashda eng asosiysi umumiy hajmni ko'rsatib olib va nisbatlarini aniqlagandan so'ng, haykalning umumiy hajmi bilan solishtirishga o'tiladi.

Tirik odamning haykalini yasashda eng asosiysi bu insonning anatomik jixatdan tuzilishini va muskullarining haqiqiyiligini ko'rsatib berishdir. Lekin bu hamma muskullarni aniq, tasvirlash degani emas: faqatgina eng katta va ko'rinadigan muskullarni aniqlash va ishlash kerak.

Ko'pincha bunda model bir oyog'iga tayanib turgan, ikkinchisi esa xiyol taxtaga tegib turgan holat tanlanadi. Asimmetrik turish holatida bo'sh oyoq son (qismi yuqoriga ko'tarilib, tayanch oyoq tomonga qiya bo'ladi, bir elka esa ikkinchisidan balandroq turadi. Shu bilan birga umurtqa pog'onasi va asosiy oldingi o'q chizig'i tayanch oyoqdan og'irligi xoli tomonga egilib turadi. Etudning shakli butun balandligini bilgan holda darhol bo'yin chuqurchasini va og'irlik markazini belgilab olish kerak. Shundan keyin tayanch oyoq, bilak bo'yin chuqurchasidan vertikal bo'yicha o'tuvchi chiziqni aniqlab olish kerak. Buni orqasidan ham, oldidan ham, yonidan ham ko'rib aniqlandi.

Agarda bo'yin chuqurchasidan tikka chiziq tortilsa u tayanch oyoq tovonidan o'tadi. Etud harakatlarni to'g'riligini vaqti - vaqti bilan tekshirib turish kerak (bunda chap va o'ng tomon qovurg'a suyaklari va erkin turgan oyoqning ichki muskullari o'zaro kanday moslashishlari aniqlanadi).



33-rasm

Tananing katta qismlari nisbatlarini oldindan to`g`ri olishga harakat qilish kerak, masalan oyoqning gavda va boshga nisbatan uzunligini aniqlash va xokazo. Katta o`lchamlarning nisbatlarini aniqlab olgandan keyin kichiklarini, doim bir biriga tez - tez taqqoslab borish lozim.

Bedelning harakteristikasini aniqlashga o`tishda (boshqacha aytganda o`hshashligini etkazib berish) tana qismlari harakterli hususiyatlarini tushunish, belga nisbatan elkaning va ko`krak qismining holati qandayligini bilib olish, bo`yinning bosh burilishi va egilishiga nisbatan harakatlarini ko`rib chiqish muximdir.

OXIRGI ISHLOV BERISH

Tayyor bo'lgan ishni pishirishdan oldin uni yaxshilab quritish kerak. Bu jarayon uch haftagacha davom etishi mumkin.

haykal bir xil qurishi uchun unga plastik paket kiygiziladi va kunda oz-ozdan kattalashtirib teshik ochib boriladi. Bu usulning afzal tomoni shundaki, haykalning ustki qismi tez qurib qolmaydi. Ichki qismi ham usti bilan teng quriydi. Qurigandan so'ng haykalda mayda yoriqlar paydo bo'ladi. Uning ustiga xo'l salfetka o'rab qo'yish kerak. Bu xo'l salfetkalarni haykalning boshqa tomonlari ko'rib bo'lgandan keyin olib tashlanadi. Qurigandan keyin loyni rangi o'zgaradi. Agar haykal yaxshilab qurimagan bo'lsa, uni yana bir necha kun kutish kerak. Haykalning bir joyi sinib tushsa bu detallarni ham pishirib keyin elimlash kerak.

PISHIRISH

Pechga tayyor mahsulotlarni joylashtirishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Tikka turgan figuralar pech devoriga tegmasligi kerak. Pishirish temperaturasi loyni to'riga bog'liq. Ko'pincha temperatura 1000°S dan 1100°S gacha bo'ladi. Agar temperaturani ko'tarsak loy qattiqlashib qorayadi, hajmi kichrayadi. Pishirilgandan keyin buyum pechning ichida 8 soat qoldirib sovutiladi. Kerak bo'lsa haykalchani sirlab yana pishiramiz (temperatura 1000°S dan 1200°S gacha).

REMONT

Pishirish vaqtida yoki undan keyin buyum sinib, yorilib ketishi mumkin. Bundan tashqari ichiga havo kirib qolsa detallar sinib tushadi. Sinib tushgan bo'laklar terib olib biriktiriladi. Buning uchun epoksid kley ishlatiladi. Teshiklariga loy yopishtiriladi.

Detallar bir - biriga mahkam bosib ushlab turiladi. Ortiqcha yelimlar chiqib ketadi. Oqib tushgan yelim o'rmini o'tkir pichoq bilan qirib tashlanadi. Yelim loyga surilmasligi kerak, aks holda uni ketkazish qiyin. Agar yirikroq detallar. Masalan, qo'l yoki oyoq sinib tushgan bo'lsa, bu elimlash yordam bermaydi. Buning uchun

dyubeldan foydalanish kerak. Drel bilan 2 ta detal dan 1 - 1,5 sm teshik ochiladi. Kerakli uzunlikdagi metal shtift kesib olinadi. Kerakli uzunlik ikkita ochilgan teshikning uzunligi hisoblanadi. Keyin teshiklar epoksid elim bilan elimlanadi.

Yopishtiriladigan sirtlar ham elimlanadi. Keyin ular bir biriga mahkam qisilib biriktiriladi, yelim qotgandan keyin ortiqchalari qirib olinadi.

HAYKALNING SIRTINI QAYTA ISHLASH

Haykalning tashqi ko'rinishini, kirgan - chiqqan joylarini aniq chiqarish uchun pishirgandan keyin patina bilan qoplanadi. Buning uchun oddiy mum olinadi. Loy juda gidroskopik bo'lganligi uchun mumni bir necha marta surtish kerak bo'ladi.

Pol uchun ishlatiladigan mumni issiq holatda terpentin yoki atseton bilan eritamiz. Terrakotaga boshqa rang berish uchun mum aralashmasiga rang pigmentlari qo'shiladi.

Ikkinchi usul. Palerovka qilmasdan oldin figurani hamma joyiga gips surtib chiqiladi. Bo'yalgandan keyin ortiqcha gipslar tushirilib tashlanadi. Usti yumshoq cho'tka bilan ishqalanadi. Gips haykalchaga mustahkam va tekis yopishadi. Haykalcha yaltirab ko'rinadi.

PLASTILIN

Biz plastilinni bolaligimizdan yaxshi bilamiz. Uning qulay tomonlaridan biri u uzoq vaqt elastik saqlanadi va qurimay turadi. Lekin uni qayta ishlash mumkin emas. Uning originalini saqlash uchun undan negativ shakl olish kerak.

MUM

Mumdan mayda haykalchalar yasaladi. Undan keyin bronzadan originali qo'yib olinadi.

PAPE - MASHI

Pape - mashini mustaqil tayyorlash juda - juda oson. Buning uchun gazeta mayda bo'laklarga bo'linib, yarim kun suvga solib qo'yiladi. Unga oboy kley qo'shiladi. Tayyor bo'lgan massani drel yoki mikser bilan aralashtiriladi.

Kul rang quyiqlik aralashma hosil bo'ladi va suvi siqib olinadi. Bu massa modellashtirishda foydalaniladi. Undan aniq shakllar chiqarish mumkin emas. Material

qurigandan keyin tekislanadi va bo'yaladi.

QUSH VA HAYVONLARNING HAYKALINI ISHLASH

Qush va hayvonlar haykalini yasashda quyidagi vazifo qo'yiladi. Tasvirlanayotgan tirik mavjudotlar shakllarning individual o'ziga xosligini iloji boricha haqiqiy va aniqroq ko'rsatib berish uchun ularning harakatlari va odatlarini, o'ziga xosligini, anatomik tuzilishlarini o'rganib olish maqsadida ulardan har tomondan qalamchizgilar bajarib olinadi. Haykallarni yasashda ushbu namunalardan va ularning eng karakterlilaridan foydalaniladi. Chizgilarni yon, old va orqa tomonlaridan bajarish kerak. Ular keyinchalik haykalchalarning balandligi, uzunligi va kengliklarini tiklashda yordamchi material bo'lib xizmat qiladi.

Qalamchizgilar bajarishda ular tanasining tashqi shaklini, anatomik tuzilishlarining bog'liqligini diqqat bilan o'rganib chiqish tavsiya etiladi

Avvaliga modelning deyarli tinch holatda turganida chizib olgan yaxshi bo'ladi (yotgan, ovqatlanayotgan va boshqalar).

Shundan keyin hayvon yoki qushlarning o'ziga xos shakllarini ko'rsatib harakatlari, odatlari, uning hayot sharoitiga xos xususiyatlarini ifoda etishga harakat qilish kerak.

Qush yoki hayvonning haykalini yasash uchun taxtacha tayyorlab olinadi. Uning kattaligi tanlab olingan kompozitsiyaga bog'liq bo'lishi kerak. Shundan keyin simdan sinch tayyorlanadi. Agarda etud katta bo'lmasa uning uchun sinch bo'lmasligi ham mumkin. Erda yotgan va o'tirgan hamda oyoqlari baquvvat bo'lgan hayvonlarni tasvirlash uchun ham sinch kerak bo'lmaydi.

Agarda etudni sinchda bajarish zarur bo'lganida uning konstruktsiyasi oldin model skeleti asosiy o'qlari ko'rsatilgan chizg'i orqali aniqlab olinadi.

Qush yoki hayvon haykalini ishlash uchun simli sinch taxta asosga mahkamlanadi.

Asos balandligi etudning balandigiga qarab olinadi. Asosni taxtaga

mahkamlashda etud markazda joylashishini mo'ljallab olish kerak. Sinchning hamma qismlarini asosga bog'lab mahkamlab olinadi.





Haykalni yasash loyni sim sinchga yopishtirib olishdan boshlanadi. Sinchga loy surtishdan avval gavda katta qismlari harakatlari va nisbatlari aniqlab olinadi (boshi, bo'yni, oyoqlari, dumi va hokazo).





Bir qismni yasab turib, modelning boshqa qismlari nisbatlarini qarab borish kerak. Shuni esda to'tish kerakki, etudni haddan tashqari batafsil bajarish (masalan hamma to'qimalarini, alohida tuklarini ko'rsatib o'tish) uning umumiy ko'rinishiga putur etkazadi. Shuning uchun faqatgina ushbu model uchun eng o'ziga hos belgi, hislatlarini ko'rsatishga harakat qilish shart.



Shakllarning tuklar, patlar bilan berkitilgan va birlashgan joylarini belgilab olib (bunda tashqi ko'rinishdan emas, tuzilishdan kelib chiqib) namunaning umumiy harakatlarini belgilanadi, tana qismlarining gorizontaal va vertikal bo'yicha nisbatlarini aniqlashda o'tiladi.

Misol uchun o'tirgan hayvonning gorizontaal shakli bo'yicha boshi, tanasi, dumi, balandligi va oyoqlari uzunligi nisbatlari belgilab olinadi. Bunda o'rta chizig'ini ham hisobga olish kerak. Modelning asosiy harakatlarini to'g'ri ko'rsatish, ularni simmetrik ko'rish va bo'laklarni namunaning shakli bo'yicha umumiy ko'rinishiga bo'ysundirilishiga bog'liq bo'ladi.

Qush va hayvonlar haykalini metodik bosqichlarda ishlash







ADABIYOTLAR

1. Yozef Lang Skultura dlya nachenayushix i studentov xudojesvennix vuzov. M. 2000.
2. E. Barchay. Anatomiya dlya xudojnikov. Budapesht .1975.
3. B. Baymetov Haykaltaroshlik va plastik anatomiya “ Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriyat yo`nalishi o`quv dasturi.
4. L.M.Pisarevskiy. Lepka golovi cheloveka . M. 1968 g
5. Sokolov V.N Lepka figuri M. 1982.
6. A.E. Terentev. Izobrajenie jivotnix i ptits sredstvami risunka i jivopisi M.1980
7. Pavlov G. M Pavlova V.N « Plastik anatomiya » M. 1967 g
8. Odporalov N.E. Skulptura i skulpturnie materialy . M 1982 g
9. Golubina A.S Neskolko slov o remesle skultura. M.1963
10. Abdullayev N. San’at tarixi. I-tom. T. «O`qituvchi». 1990 y.
11. Umarov M., Jalilov J. Plastilin va loy ishi. T. 1993 y.

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Loy.....	5
3. Ish joylari.....	7
4. Asbob uskunalar.....	9
5. Ikki uch buyumdan tashkil etgan natyurmortning relefini ishlash.	10
6. Gips naqsh rozetkasini o`ziga qarab relefini ishlash.	17
7. Qo`l panjasi.....	19
8. Gips modeliga qarab, odam boshi relefini ishlash.....	23
9. Gips modellaridan odam boshini ishlash.....	30
10. Odam boshini etyudini ishlash.....	31
11. Ohirgi ishlov berish.....	49
12. Qush va hayvonlarning haykalini ishlash.....	53
13. Adabiyotlar.....	56

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Urganch Davlat universiteti

“Qurilish va arxitektura” kafedrası

Haykaltaroshlik

Arxitektura va KXALTI yo'nalishi talabalari uchun uslubiy qo'llanma.

Tuzuvchi:

Allaberganov Ataxan.

Seyitniyazova Ayimxan.

Urganch-2019